

Adilova Go’zal Abdazovna Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedra mudiri, i.f.n.dot e-mail: adilova_guzal@mail.ru +998908054388

Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o’g’li Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va boshqaruv” katta o’qituvchisi e-mail: qoraboyev.nuriddin@mail.ru +998971096262

Odilova Malika Abdushukur qizi Toshkent kimyo xalqaro universiteti “Biznesni boshqarish” mutaxassisli magistri e-mail odillovamalika147@gmail.com +998 90 906 01 35

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQARO YOZGI MAKTAB VA TA’LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNINING ISTIQBOLLI YO’NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida xalqaro yozgi maktab va ta’lim turizmi rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlari, shuningdek oliy ta’lim universitetlarida yozgi maktablarni tashkil qilish, hamda ta’lim orqali turizmni rivojlantirish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, taklif va xulosa berilgan.

Kalit so’zlar: Turizm, ta’lim turizmi, iqtisodiyot, yozgi maktab, universitetlar, valyuta, o’quv dasturlari.

Аннотация. В данной статье приведены научно-исследовательские работы, предложения и выводы по перспективным направлениям развития международной летней школы и образовательного туризма в Республике Узбекистан, а также организации летних школ в высших учебных заведениях, а также по развитию туризма через образование.

Ключевые слова: Туризм, образовательный туризм, экономика, летняя школа, университеты, валюта, образовательные программы.

Abstract. This article presents scientific research, proposals, and conclusions on the development of an international summer school and promising directions for advancing educational tourism in the Republic of Uzbekistan. It also discusses the organization of summer schools at higher education universities and the promotion of tourism through education.

Key words: Tourism, educational tourism, economy, summer school, universities, currency, educational programs.

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm bo‘yicha Butunjahon turizm barometri ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiy, geosiyosiy va iqlim muammolariga qaramay 2024-yilning to‘qqiz oyida 1,1 milliardga yaqin sayyoh xorijga sayohat qilgan. Daromadlar bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkichlar orasida Serbiya (+99%), Pokiston (+64%), Ruminiya (+61%), Yaponiya (+59%), Portugaliya (+51%), Nikaragua va Tanzaniya (ikkalasi ham 50%) o‘sishni qayd etdi.¹

World Economic Forum (WEF) tomonidan e’lon qilingan Turizmni rivojlantirish indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston avvalgi reytingga nisbatan 16 pog‘ona yuqorilab, 78-o‘rinni egalladi. Indeks 193 mamlakatni qamrab oladi.²

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida 8,6 million xorijiy sayyohni qabul qilib, ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko‘rsatdi. Jahon iqtisodiy forumi mamlakatimizni “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati” deb tan oldi, xalqaro yarmarkalarda milliy turizm salohiyati muvaffaqiyatli targ‘ib qilindi.³


dolzarbligini isbotlaydi:

- 
1. O‘zbekistonning YaIMida turizmdan keladigan daromadini ya’ni valyuta va sayohlarni qanday barqaror ko‘paytiramiz?
 2. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda, shuningdek sayohlar oqimini oshirish uchun qanday dasturlar kerak?
 3. O‘zbekistonning turizm sohasi dunyoning yuqori 50 taga kiruvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun qanday strategiya tuzushimiz zarur?
 4. O‘zbekistondagi universitetlar qachon dunyoning 500 reytingiga kiradi va xorijiy talabalarni qanday O‘zbekiston oliygochlariiga jalb qilamiz?
 5. O‘zbekiston ta’lim turizmni rivojlantirish bo‘yicha konsepsiya va strategiya mavjudmi?

¹ UN Tourism. <https://www.unwto.org/>

² <https://www.uzdaily.uz/> World Economic Forum (WEF).

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. www.stat.uz.



strategiya mavjudmi?

6. Nega O'zbekistonda oliy ta'lif universitetlarida yozgi maktab (Summer School Program) yoki Study Abroad tashkil qilinmayapti? 4. O'zbekistondagi universitetlar qachon dunyoning 500 reytingiga kiradi va xorijiy talabalarni qanday O'zbekiston oliygohlariga jalb qilamiz?

5. O'zbekiston ta'lif turizmni rivojlantirish bo'yicha konsepsiya va

6. Nega O'zbekistonda oliy ta'lif universitetlarida yozgi maktab (Summer School Program) yoki Study Abroad tashkil qilinmayapti?

Xitoy davlatida **“Bir makon va bir yo'l”** ya'ni **“The Belt and Road Training Program”** dasuturi mavjud va har yili ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi:⁴

Xitoy davlatida **“Bir makon va bir yo'l”** ya'ni **“The Belt and Road Training Program”** dasuturi mavjud va har yili ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi:⁵

1. Iqtisodiyotni kengayishini qo'llab-quvvatlash, shunindek iqtisodiyotni rivojlanishini ta'minlash uchun xalqaro va mintaqahlar bo'yicha hamkorlikda ochiqlikni oshirish.

2. Ilmiy va texnologik innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kuchaytirish;

3. Axborot almashinuvi va resurslarni jamlashni doimiy ravishda kuchaytirish. "Bir makon, bir yo'l" kompleks xizmat ko'rsatish markazi funksiyalarini mustahkamlash va takomillashtirish;

4. Yashil, raqamli va innovatsion yo'nalishlarga o'tishda standartlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish;

5. Juhon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashish va hamkorlikda yetakchi brendlarni rivojlanish;

6. Madaniy almashinuvlar, savdo va mahsulotlar ko'rgazmalari hamda savdosini osonlashtiradigan "Ipak yo'li" elektron tijorat hamkorlik tajriba zonalarini rivojlanishni jadallashtirish. Muhim loyihalar va "kichik, ammo aqlii" tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;

7. Barqaror, shaffof va yuqori sifatli moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida moliya sohasidagi amaliy hamkorlikni izchil chuqurlashtirish;

⁴ <https://english.shanghai.gov.cn>

⁵ <https://english.shanghai.gov.cn>

8. Yashil rivojlanishni birgalikda rag‘batlantirish va yangi sohalarda hamkorlikni kengaytirish. Yashil infratuzilma, yashil energetika va yashil transport kabi sohalarda milliy loyihalarni birgalikda ishlab chiqishda korxonalarining ishtirokini rag‘batlantirish.

Materiallar va tadqiqotlar usullari. Xitoy Xalq Respublikasining “Bir makon va bir yo’l” dasturida “lmiy va texnologik innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kuchaytirish”



uchun barcha universitetlar xorijiy talabalarni Summer School Program yoki Study Abroad jalb qilishda strategiyasi mavjud bo‘lib har bir universitet umumiy 200-300 gacha xorijiy talabalarni jalb qiladi. Yozgi maktab va o’quv dastur orqali iqtidorli talabalarni magistratura va PhD uchun jalb qilishadi. Ushbu o’quv dasturlari orqali Xitoyda turizm oqimi yildan yilga o’sib bormoqda va xorijiy talabalardan valyuta kirishi mamlakatning yalpi ichki


mahsulotini o’sishiga olib kelmoqda. Turizm – bu odamlarning o‘z bilimlarini oshirish maqsadida boshqa hudud, shahar yoki mamlakatdagi maktablar yoki o‘quv muassasalariga borishini anglatuvchi atama. Ta’lim sayohatlari orqali odamlar nafaqat o‘z o‘quv dasturlari yoki maqsadlari haqida, balki atrof-muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va madaniy muhit to‘g‘risida ham ko‘proq ma’lumot olishlari mumkin.

“Ta’lim turizmi” atamasi aniq ta’lim maqsadlariga erishish uchun rejalashtirilgan va tashkil etilgan ta’lim sayohati tajribalarini anglatadi. Bunday sayohat va ta’lim sayohatlari talabalar va ishtirokchilarga sinfdan tashqarida bilimlarini sezilarli darajada oshiradigan jahon darjasidagi global va mahalliy hamda umrbod ta’lim tajribasini beradi. Ta’lim sayohatlarida yuqori sifatli ta’lim bilan birga ko‘ngilochar unsurlar ham mavjud. Turli joylarga tashrif buyurish nafaqat yoqimli tajriba beradi, balki ta’lim maqsadlari va natijalariga mos keladigan muhim o‘quv tajribasini ham ta’minlaydi.

Ta’lim turizmi va uning tasnifi har qanday iqtisodiyotning eng muhim qismidir. Ushbu maqolada unga nisbatan qarash va uning Hindiston ta’lim turizmini barqaror rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Ta’lim turizmiga misollar: ta’lim, maktab ekskursiyalari, seminar ta’tillari, chet elda o‘qish imkoniyatlari va o‘zini takomillashtirish ta’tillari. Ta’lim turizmining aniq tasnifi mavjud bo‘lmasa-da, uning quyidagi turlari mavjud:

1-rasm

TA’LIM TURIZMNING TURLARI VA TASNIFI⁶



Yoshlar uchun sayohat imkoniyatlari: maktab sayohatlari, ta’lim sayohatlari va qisqa ekskursiyalar, ta’lim kurslari, talabalar almashinuvi dasturlari, yoshlar almashinuvi dasturlari va yozgi lagerlar.

Chet elda o‘qish dasturlari: Xalqaro talabalar almashinuvi dasturlari, o‘zini bilimini takomillashtirish ta’tillari, xalqaro tadqiqot dasturlari.

O‘quv sayohatlari: madaniyat meros, ma’naviyat va ziyorat, sog‘lomlashtirish san’ati, tabiat, sarguzashtlar va tillarni o‘rganishga qaratilgan sayohatlarni o‘z ichiga oladi.

Dunyoning eng yaxshi joylarida yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va bilim olishga bo‘lgan talabning ortib borishi ta’lim turizmining o‘ziga xos turizm va sayohat sanoati sifatida global miqyosda shakllanishiga olib keldi. Tashrif buyuruvchilar va sayohatchilarning turli xil o‘rganish tajribasiga ega yangi joylarni ko‘rish istagi va tendensiyalari sayyoqlar uchun jozibadorlikni yanada oshirdi.

Ta’lim turizmi xorijiy talabalarni ta’lim muassasalariga jalb qilishning samarali vositalaridan biridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi xalqaro talabalar uchun tashkilotlarda mavjud amaliyotlarni o‘rganish hamda kelajakda O‘zbekistondagi barcha oliy ta’lim muassasalariga kirishni xohlovchi xalqaro talabalarni qabul qilish resurslarini aniqlash usullari va jarayonlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyotining asosan turizm sohasiga bog‘liq ekanligini yoritib berishga qaratilgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda ta’lim tizimi orqali turizmi sohasining rivojlantirish hisoblanadi. Ma’lumot to‘plash maqsadida nashrlar, kitoblar, davriy nashrlar, veb-saytlar va ommaga ochiq hukumat ma’lumotlarining keng qamrovli kutubxonasidan foydalanildi. Mohiyatan, bu tushuntirish tadqiqoti hisoblanadi. Turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘rganildi va ta’lim turizmiga oid ma’lumotlar

⁶ <https://www.researchgate.net/publication/362278465>

chuqurroq tahlil qilindi. Ta’lim orqali O’zbekistonda turizmi barqaror o’sishiga hissa qo’shayotgani haqida xulosaga va takliflar berildi.

Asosiy natijalar: Ta’lim tizimi orqali turizm sohasini rivojlantirib innovatsion g‘oya bo‘lgan ta’lim turizmi dunyo bo‘ylab talabalarni O’zbekistonga jalb qilishga yordam beradi.

Talabalar almashinuvi dasturlari, professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, bakalavr, magistir va doktarantlar almashinuvi dasturlari shuningdek bir mamlakatdan boshqasiga oliv ta’lim olish ta’lim turizmining xalqaro miqyosda tan olingan tushunchalari hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O’zbekistonning sayyohlik oqimi va yalpi ichki mahsulotga qo’shgan hissasi bo‘yicha sezilarli o’sishni qayd etadi.

Tadqiqotning ahamiyati: O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirish, madaniy almashuvni kuchaytirish, YaIMni oshirish va ko‘proq xorijiy talabalarni jalb qilish maqsadida Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti ta’lim turizm dasturlarini ishlab chiqishgan. Kelajakdagi olimlar, kompaniyalar va ta’lim sohasidagi maslahatchilar, talabalar, magistirlar va ilmiy tadqiqotchilar, o‘qituvchilar



uchun ushbu tadqiqot TIFT universitetining ta’lim turizmining afzalliklarini tushunishda foydali bo‘lishi mumkin. Ta’lim turizmi doirasida muassasalar va maslahatchilar talabalarning o‘quv jarayoni va tajribasi haqida ko‘proq ma’lumot olishlari mumkin. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, davlat xorijiy mamlakatlardan kelgan xorijiy talabalar bilan

bog‘liq siyosatini takomillashtirish uchun ushbu tadqiqotdan foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning yangiliği: O’zbekistonda ta’lim turizmi nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, bu sohada tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Ta’limiy sayohatlar bo‘yicha bir nechta izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ta’lim turizmiga bag‘ishlangan birorta ham ilmiy ish qilinmagan. Ushbu tadqiqot sayyohlarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minalash nuqtai nazaridan ta’lim turizmining ahamiyatini ko‘rib chiqish uchun to‘plangan ma’lumotlar va dalillarga asoslanadi.

Prezidentimiz tomonidan ta’limga e’tibor ortishi natijasida 2024-yilda mamlakatimizda 212 ta oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib 1559145 ta talaba bakalavr, 41415 ta talaba magistratura va doktorantura hamda ordinaturada 5587 ta tahsil olmoqda.⁷ Har bir universitet talabalari almashunuv dasturlari orqali ya’ni grant yutub turli

⁷Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi <https://stat.edu.uz/>.

universitetlarda o’qib kelishmoqda. Xorijiy grantlar va “El-yurt umidi” jamg‘armasi-xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotganlar, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste’dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarida hamda O‘zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar tayyorlash maqsadida tuzilgan tashkilot bo’lib talablarni moliyaviy jihatdan qo’llab quvatlashi judaham ta’limni rivojlanishiga o’z hissasini qo’shamoqda. Ammo xorijiy mamlakat talabalari O‘zbekistonga **“Study Abroad”** yoki **Summer School Program** dasturlariga qachon kelishadi?

Natijalar va ularni muhokama qilish. Toshkent xalqaro moliya va texnologiyalar universitetining “Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrasi o’qituvchilari tomonidan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentininig 2025 yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot”** yili uchun yozgi **Summer School dasturini** ishlab chiqdi.

**2025-YIL “TA’LIM, IQTISODIYOT, YASHIL IQTISODIYOT VA TURIZM”
TALABALAR UCHUN O’QUV DASTUR**

**(MEZBON UNIVERSITET: TIFT TOSHKENT XALQARO MOLIYA VA
TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI).**

1.DASTUR MAQSADLARI:

1. Ma’ruza va seminar: “TA’LIM, IQTISODIYOT, YASHIL IQTISODIYOT VA TURIZM” o’quv dasturi orqali mamlakatlari uchun iste’dodlarni rivojlantiring.
2. TA’LIM, IQTISODIYOT, YASHIL IQTISODIYOT VA TURIZM kabi sohalardagi almashinuv va aloqalarni yanada mustahkamlash, shuningdek, chuqr ilmiy, o’quv va madaniy muloqotlar orqali iste’dodli kadrlarning boy zaxirasini yaratish.
3. “TA’LIM, IQTISODIYOT, YASHIL IQTISODIYOT VA TURIZM” o’quv dasturi orqali mamlakatlarning iqtidorli yoshlarini O‘zbekistonni yaxshiroq tushunadigan, malakali va yetakchilik qobiliyatiga ega elitalarga-eng yaxshi, eng sarasiga aylantirish.
4. “TA’LIM, IQTISODIYOT, YASHIL IQTISODIYOT VA TURIZM” o’quv dasturi orqali tashabbusi doirasidagi kompaniyalarga tashriflar va sayohatlar orqali o‘rganish.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentininig 2025 yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilinishi “TA’LIM, IQTISODIYOT, YASHIL IQTISODIYOT VA TURIZM” o’quv dasturi tashabbusi bilan O‘zbekiston global rivojlanish uchun yangi yo‘l ochmoqda.

Ushbu loyihada 30 davlatdan 2 tadan iqtidorli talabalar tashrifi kutulmoqda va quyidagi dastur ma'lumotlarini va talablari O'zbekistondagi har bir universitetlarning veb-saytiga joylashtiriladi.

2. DASTUR MA'LUMOTLARI

2.1. Muvofiqlik. Yoshlar tashkilotlarining rahbarlari, o'qituvchilar yoki yirik va o'rta korxonalardagi yoshlar yetakchilari; 18 yoshdan katta va 40 yoshdan kichik bo'lganlar; magistr yoki undan yuqori ilmiy darajaga ega bo'lganlar; ingliz tilini asosiy darajada biladiganlar va O'zbekiston fuqarosi bo'lмаган chet elliklar

2.2 Ariza topshirish muddati: 2025-yil 15-martdan 30-aprelgacha

2.3 Taqdim etiladigan hujjatlar:

1. Ariza shakli
2. Pasport nusxasi
3. Tarjimai hol (CV)
4. Tavsiya xati. Tashrif buyuruvchi mehmon uchun (universitet, korxona va tashkilotlardan beriladigan rahbari yoki mahalliy mamlakat hukumat departamenti boshlig'i tomonidan) tavsiya xati berilish

2.4 Ariza topshirish tartibi-Universitetlarning rasmiy saytlariga talabalar kirib kerakli hujjatlarni to'ldiradi va yuboradi.

2.4 Qanday murojaat qilinadi

- 2.4.1 Ariza shaklini to'ldiring va uni pasport nusxasi hamda boshqa tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga 2025-yil 30-aprelgacha TIFT-Universitetining elektron manziliga yuborishadi.
- 2.4.2 TIFT universiteti barcha hujjatlarni ko'rib chiqadi. Talabga javob beradigan mehmonlar uchun 2025-yil 1-maydan boshlab kirish vizasi uchun qabul hujjatlarini olishadi.

3. Viza Turi. 90 kun qolish

1-jadval

Universitet va Xorijiy talabalarining xarajatlar jadvali⁸

Universitetlar tomonidan dastur uchun to‘lanadigan to’lovlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Aeroportdan kutib olish xizmati 2. O‘quv to‘lovi 3. Universitetning mahalliy tadbirlar uchun xarajatlari. 4. Universitetning tadbiridagi ovqatlanish xarajatlari 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bepul turar joy 2025-yil 14-iyuldan taqdim etilgan 2025-yil 27-iyul gacha. 2.
Xorijiy talabalar tomonidan to‘lanadigan to’lovlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Samalyot uchun to’lovlar 2. Jadvalga kiritilmagan ovqatlanish xarajatlari 3. Yo’l kira xarajatlari boshqa 4. Tarixiy shaharlarga. 5. Boshqa shaxsiy xarajatlar. 6. Sug‘urta to‘lovi 	<ol style="list-style-type: none"> 1.1000\$ 2. hafta uchun 200\$ 3.100\$ 4. 100\$ 5. 100\$ 6. 50\$

Ushbu dastur orqali xorijdan kelgan talabalar tarixiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida 5 kunlik sayohat rejlashtirilgan.

Kutilayotgan natijalar. Turli ma’ruzalar, seminarlar, chuqur madaniy munozaralar va kompaniyalarga tashriflar orqali ishtirokchilar shahar rivojlanishi bo‘yicha katta tajriba orttiradilar, so‘ngra mahalliy va xorijiy ekspertlar, talabalar hamda O’zbekiston fuqarolari bilan teng muloqot, fikr almashish va aqliy hujum yordamida samarali kelishuvlarga erishadilar.

Xulosa. Mamlakatimizda bugungi kunda 212 ga yaqin universitet faoliyat ko’rsatmoqda, shuningdek akademiyalar va institutlar mavjud. O’zbekistonda 212 ta universitet yo’nalishlari bo‘yicha xalqaro yozgi maktab (international summary school) dasturini tashkil qilsa 1 yilda bir dona universitet kamida 100 xorijiy talabalarini taklif qilsa $212 \times 100 = 21200$ mingta xorijiy talabalar tashrif buyuradi. Bu 2 hafta davomida xorijiy talabalar tomonidan oziq-ovqat, aviachipta, qo’shimcha xarajatlar bilan kamida minimal va maksimal hisoblanganda taxminan 800-1200 \$ gacha xarajat qiladi. Bu O’zbekiston uchun 16960000 million \$ dan 25440000 million \$ gacha mamlakatimizga valyuta kirishini taminlaydi shuningdek turizmni rivojlantirish va turizm sayohlar oqimini 30 % oshishiga olib keladi.

⁸ Mualliflar tomonidan tuzulgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. UN Tourism. <https://www.unwto.org/>.
2. <https://www.uzdaily.uz/> World Economic Forum (WEF).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. www.stat.uz.
4. Shanghai University <https://english.shanghai.gov.cn>.
5. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi <https://stat.edu.uz/>.